**Kalit so‘zlar:** ikkilamchi batareya, second-life battery, BYD PHEV, tezkor quvvatlash, DC fast charging, energiya saqlash tizimi, elektromobil infratuzilmasi, O‘zbekiston.

**Аннотация.** В данной статье проанализированы возможности использования аккумуляторов электрических и plug-in hybrid транспортных средств, находящихся на стадии вторичного использования, в качестве буферной системы накопления энергии для развития инфраструктуры быстрой зарядки электромобилей в Узбекистане. В последние годы в Узбекистане наблюдается рост количества автомобилей марки BYD типа plug-in hybrid electric vehicle (PHEV), что в перспективе делает актуальными вопросы утилизации и повторного использования аккумуляторных блоков ёмкостью 8.3 kWh, 18.3 kWh и 26.6 kWh [1]. В исследовании данные аккумуляторные блоки были сравнены с точки зрения их применения в качестве буферной системы на DC станциях быстрой зарядки мощностью 60 kW и 90 kW. Расчёты выполнены на основе состояний State of Health (SOH) — 60 %, 75 % и 90 %, глубины безопасного использования (DoD) — 80 %, а также эффективности передачи энергии от аккумулятора к электромобилю — 95 %. Результаты показали, что аккумуляторный блок BYD PHEV ёмкостью 26.6 kWh является наиболее оптимальным вариантом для первого пилотного проекта в условиях Узбекистана. Это обусловлено тем, что при одинаковой общей буферной ёмкости данное решение требует меньшего количества аккумуляторных блоков, каналов BMS, высоковольтных соединений и характеризуется более низкой сложностью интеграции. Рекомендуемая конфигурация включает 6 аккумуляторных блоков ёмкостью 26.6 kWh, модульную буферную систему номинальной ёмкостью около 160 kWh, работающую с DC зарядной станцией мощностью 60 kW и подключением к электрической сети мощностью 30-40-kW.

**Ключевые слова:** вторичная батарея, second-life battery, BYD PHEV, быстрая зарядка, DC fast charging, система накопления энергии, инфраструктура электромобилей, Узбекистан.

**Abstract.** This article analyzes the potential of using second-life batteries from electric and plug-in hybrid vehicles as buffer energy storage systems for the development of fast-charging infrastructure for electric vehicles in Uzbekistan. In recent years, the increasing number of BYD plug-in hybrid electric vehicles (PHEVs) in Uzbekistan has made the future utilization and reuse of retired battery packs with capacities of 8.3 kWh, 18.3 kWh, and 26.6 kWh increasingly relevant [1]. The study compares these battery packs from the perspective of their application as buffer systems for 60 kW and 90 kW DC fast-charging stations. The calculations were carried out based on 60 %, 75 %, and 90 % State of Health (SOH) conditions, 80 % safe Depth of Discharge (DoD), and 95 % energy transfer efficiency from the battery to the electric vehicle. The results demonstrate that the 26.6 kWh BYD PHEV battery pack is the most suitable option for the first pilot project under the conditions of Uzbekistan. This is due to the lower number of battery packs, fewer BMS channels, reduced high-voltage connections, and lower integration complexity required to achieve the same total buffer capacity. The proposed initial configuration consists of six 26.6 kWh battery packs forming a modular buffer system with an approximate

nominal capacity of 160 kWh, operating with a 60 kW DC fast-charging station and a 30-40 kW grid connection.

**Keywords:** second-life battery, BYD PHEV, fast charging, DC fast charging, energy storage system, electric vehicle infrastructure, Uzbekistan.

## KIRISH

Elektromobillar va plug-in gibrid avtomobillar sonining ortib borishi energetika tizimi hamda transport infratuzilmasi oldiga yangi texnik va iqtisodiy vazifalarni qo‘ymoqda [1]. Ayniqsa, DC tezkor quvvatlash stansiyalarining yuqori quvvat talab qilishi ularni mavjud elektr taqsimlash tarmoqlariga ulash jarayonini murakkablashtirmoqda. Ko‘plab hududlarda 60 kW, 90 kW yoki undan yuqori quvvatli stansiyalarni o‘rnatish uchun transformator quvvatini oshirish, kabel liniyalarini modernizatsiya qilish yoki yangi elektr ulanish nuqtalarini tashkil etish talab etiladi. Natijada loyiha qiymati ortadi hamda uni amalga oshirish muddati uzayadi.

O‘zbekiston sharoitida mazkur masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatda elektromobillar soni jadal sur’atlarda oshib bormoqda. Shu bilan birga, BYD avtomobillarining, xususan, plug-in gibrid modellarining keng tarqalishi kelgusida ikkilamchi foydalanishdagi batareyalar oqimini shakllantirishi kutilmoqda [1-4]. Bunday batareyalar avtomobil uchun talab qilinadigan maksimal quvvat va yurish masofasini to‘liq ta’minlay olmasligi mumkin, biroq ular statsionar energiya saqlash tizimlarida yana bir necha yil samarali foydalanilishi mumkin [8, 12, 13].

Shu nuqtayi nazardan, ikkilamchi foydalanishdagi batareyalarni tezkor quvvatlash stansiyalarida bufer tizim sifatida qo‘llash bir vaqtning o‘zida ikki muhim vazifani hal etishga xizmat qiladi. Birinchidan, ushbu yondashuv elektr tarmog‘iga tushadigan yuqori yuklamani kamaytiradi. Ikkinchidan, eskirgan batareyalarni bevosita utilizatsiya qilishdan oldin ulardan qo‘shimcha iqtisodiy qiymat olish imkonini yaratadi [12, 13]. Mazkur yondashuv aylana iqtisodiyot tamoyillari, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlik maqsadlariga to‘liq mos keladi [16].

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi O‘zbekistonda keng tarqalishi kutilayotgan 8.3 kWh, 18.3 kWh va 26.6 kWh sig‘imli BYD PHEV batareya bloklarini tezkor quvvatlash infratuzilmasi uchun second-life bufer tizimi sifatida baholashdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur tadqiqot mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy adabiyotlarda ikkilamchi foydalanishdagi elektromobil batareyalarini tezkor quvvatlash infratuzilmasida qo‘llash masalasi keng ko‘lamda o‘rganilgan. Smith va hammualliflari second-life batareyalarning energiya saqlash tizimlarida texnik jihatdan samarali faoliyat yuritishi mumkinligini ta’kidlagan. Haram va hammualliflari esa bunday batareyalarning iqtisodiy samaradorligi, xizmat muddati hamda ekologik afzalliklarini atroflicha tahlil qilgan. Montes Torre va boshqalar elektromobil batareyalarining ikkilamchi foydalanishga yaroqliligini baholash metodologiyasini ishlab chiqqan bo‘lsa, Omar va hammualliflari LFP batareyalarning eskirish jarayonlari hamda siklik xizmat muddatini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Shuningdek, NREL tadqiqotlarida batareyali bufer tizimlari elektr tarmog‘i quvvati cheklangan hududlarda tezkor quvvatlash stansiyalari uchun muqobil va samarali yechim sifatida ko‘rib chiqilgan. Funke va hammualliflari statsionar batareyali charging stansiyalarining texnik-iqtisodiy samaradorligini o‘zaro solishtirgan. Xu va hammualliflari eskirgan litiy-ion batareyalarni fast charging tizimlarida qo‘llash istiqbolli yo‘nalish ekanligini qayd etgan. Boudellal, Ziras, Larsen hamda Marinelli tadqiqotlarida esa batareya-bufer tizimlari ayrim holatlarda elektr tarmog‘ini modernizatsiya qilish xarajatlarini kamaytirishi mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab ko‘rsatilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda uch turdagi BYD PHEV batareya sinfi ko‘rib chiqildi: 8.3 kWh sig‘imli Chazor/Qin Plus DM-i batareya bloki, 18.3 kWh sig‘imli SONG PLUS/SEAL U DM-i batareya bloki hamda 26.6 kWh sig‘imli SONG PLUS/SEAL U DM-i batareya bloki. BYD SEAL U DM-i va SONG PLUS DM-i modellari bo‘yicha ochiq texnik ma’lumotlarda 18.3 kWh va 26.6 kWh sig‘imli Blade Battery/LFP batareya tizimlari keltirilgan [2, 3, 5]. BYD Qin Plus DM-i qo‘llanmasida esa kichik sig‘imli LFP batareya varianti hamda batareyaning ishlash harorati bo‘yicha ishlab chiqaruvchi tavsiyalari bayon etilgan [4].

Baholash jarayoni uch xil SOH holatida amalga oshirildi: 60 % SOH — sezilarli darajada eskirgan, biroq foydalanish imkoniyati saqlanib qolgan holat; 75 % SOH — ikkilamchi foydalanish uchun o‘rtacha amaliy holat; 90 % SOH — nisbatan yaxshi saqlangan batareya holati sifatida qabul qilindi. Batareyaning elektromobilga yetkazib bera oladigan foydali energiyasi maxsus hisoblash formulasi asosida baholandi.

$$E_{use}=N \cdot E_{nom} \cdot SOH \cdot DoD_{safe} \cdot \eta$$

bu yerda:

- $E_{use}$— elektromobilga yetkazib beriladigan foydali energiya, kWh;
- N— batareya bloklari soni;
- $E_{nom}$— bitta batareya blokining nominal sig'imi, kWh;
- SOH— batareyaning sog'lik holati;
- $DoD_{safe}$— xavfsiz foydalaniladigan zaryad chuqurligi;
- η— batareyadan elektromobilga energiya uzatish samaradorligi.

Hisob-kitoblarda quyidagi bazaviy qabul qilingan qiymatlar ishlatildi:

$$DoD_{safe}=0.8, \eta=0.95$$

Mazkur yondashuv batareyani to'liq zaryadsizlantirmaslik hamda uning ikkinchi hayot davridagi xizmat muddatini uzaytirish maqsadida tanlandi. Batareya resursidan oqilona foydalanish, uning termik barqarorligini saqlash va degradatsiya jarayonini sekinlashtirish second-life energiya saqlash tizimlari uchun muhim omillardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, bufer tizimining ma'lum quvvat farqini qancha vaqt davomida qoplay olishi maxsus hisoblash formulasi asosida baholandi. Mazkur yondashuv tizimning amaliy samaradorligini aniqlash, elektr tarmog'iga tushadigan yuklamani optimallashtirish hamda tezkor quvvatlash stansiyalarining barqaror ishlash imkoniyatlarini tahlil qilishga xizmat qiladi.

$$t_{buffer} = \frac{E_{use}}{P_{charger} - P_{grid}}$$

bu yerda:

$t_{buffer}$— buferning ishlash davomiyligi, soat;
$P_{charger}$— DC quvvatlash stansiyasi quvvati, kW;
$P_{grid}$— elektr tarmog'idan olinadigan mavjud quvvat, kW.

## TAHLIL VA NATIJALAR

An'anaviy DC tezkor quvvatlash stansiyalari zarur elektr quvvatini bevosita elektr tarmog'idan oladi. Biroq ko'plab obyektlarda mavjud elektr ulanish quvvati 25-40 kW atrofida bo'lishi mumkin, holbuki 60 kW yoki 90 kW quvvatli stansiyalar bunday tarmoqlarda to'liq quvvat rejimida ishlay olmaydi. Bunday holatlarda elektr tarmog'ini modernizatsiya qilish, stansiya quvvatini cheklash yoki batareyali bufer tizimlardan foydalanish mumkin [6, 7].

Elektr tarmog'ini kuchaytirish texnik jihatdan ishonchli yechim hisoblangan bo'lsa-da, u ko'pincha yuqori kapital xarajatlar, uzoq loyiha muddati hamda ruxsat olish jarayonlari bilan bog'liq bo'ladi. Boudellal va hammualliflari elektr tarmog'ini kuchaytirish hamda batareyali bufer tizimlarni o'zaro solishtirib, ayrim holatlarda batareya-bufer tizimli tezkor quvvatlash stansiyalari (battery-buffered fast charging) tarmoq infratuzilmasini kengaytirishga samarali muqobil bo'lishi mumkinligini ko'rsatgan [11]. NREL tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham "grid-constrained fast charging" obyektlari uchun batareyali bufer tizimlar kapital xarajatlarni kamaytirish va loyihalarni amalga oshirish muddatini qisqartirish imkonini berishi qayd etilgan [6, 7].

BYD PHEV avtomobillarida qo'llaniladigan batareyalar asosan lithium iron phosphate (LFP) kimyoviy tarkibiga asoslangan. LFP batareyalar yuqori termik barqarorlik, nisbatan uzoq siklik xizmat muddati hamda xavfsizlik ko'rsatkichlari bilan boshqa ayrim litiy-ion batareya texnologiyalariga nisbatan ustunliklarga ega [5]. Shu bois ular statsionar energiya saqlash tizimlarida foydalanish uchun ham maqbul variant hisoblanadi [12, 14] (1-jadval).

1-jadval
Ko'rib chiqilgan batareya bloklari[1]

| Batareya sinfi | Nominal sig'im | Second-life tizimidagi bahosi | Asosiy afzalligi | Asosiy kamchiligi |
|---|---|---|---|---|
| Kichik blok | 8.3 kWh | Laboratoriya va kichik quvvatli tizimlar uchun mos | Nisbatan arzon hamda keng tarqalgan bo'lishi mumkin | Katta miqdordagi batareya to'plamini talab qiladi |
| O'rta blok | 18.3 kWh | Kichik stansiyalar yoki 30-60 kW quvvatli tizimlar uchun maqbul | Texnik va iqtisodiy jihatdan muvozanatli yechim | 26.6 kWh variantiga nisbatan ko'proq ulanish va boshqaruv elementlarini talab qiladi |

1 Muallif tomonidan yaratilgan.

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Katta blok | 26.6 kWh | 60-90 kW tezkor quvvatlash stansiyalari uchun eng maqbul variant | Kamroq batareya to‘plami va soddaroq tizim arxitekturasi | Dastlabki investitsiya qiymati nisbatan yuqoriroq bo‘lishi mumkin |

Texnik nuqtayi nazardan, 8.3 kWh sig‘imli batareya bloki bitta modul sifatida nisbatan kichik energiya sig‘imiga ega hisoblanadi. Uni 60 kW yoki 90 kW quvvatli tezkor quvvatlash stansiyalarida qo‘llash uchun ko‘plab batareya bloklarini parallel yoki modulli tartibda ulash talab etiladi. Natijada BMS, elektr ulagichlar, saqlagichlar, kabel tizimlari, izolyatsiya nazorati hamda balanslash tizimlarining murakkabligi ortadi.

18.3 kWh sig‘imli batareya bloki esa amaliy jihatdan ancha maqbul variant hisoblanadi. Biroq 26.6 kWh sig‘imli batareya bloki bilan solishtirilganda, bir xil umumiy energiya sig‘imini shakllantirish uchun ko‘proq modul va ulanish elementlarini talab qiladi.

26.6 kWh sig‘imli batareya bloki O‘zbekiston sharoitida batareya-bufer tizimli tezkor quvvatlash stansiyalarining dastlabki pilot loyihalari uchun eng maqbul variant sifatida baholanadi. Chunki ushbu variant yetarli energiya zichligini, kamroq ulanish nuqtalarini hamda soddaroq tizim arxitekturasini ta’minlaydi. Bu esa tizimning texnik ishonchliligini oshirish, servis xizmatini yengillashtirish va integratsiya murakkabligini kamaytirish imkonini beradi.

Har bir batareya bloki uchun elektromobilga yetkazib berilishi mumkin bo‘lgan foydali energiya hajmi alohida hisoblab chiqildi. Hisob-kitoblarda nominal sig‘im, SOH ko‘rsatkichi, 80% xavfsiz Depth of Discharge (DoD) hamda 95-% energiya uzatish samaradorligi inobatga olindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, SOH darajasi pasaygani sari nafaqat umumiy foydali energiya hajmi kamayadi, balki ichki qarshilikning ortishi sababli yuqori quvvatli rejimlarda issiqlik ajralishi ham kuchayadi [13, 14] (2-jadval).

2-jadval
Bitta batareya blokidan olinadigan foydali energiya[2]

| Batareya sig‘imi | 60 % SOH holatida foydali energiya | 75 % SOH holatida foydali energiya | 90 % SOH holatida foydali energiya |
|---|---|---|---|
| 8.3 kWh | 3.78 kWh | 4.73 kWh | 5.68 kWh |
| 18.3 kWh | 8.34 kWh | 10.43 kWh | 12.52 kWh |
| 26.6 kWh | 12.13 kWh | 15.16 kWh | 18.19 kWh |

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, 75% SOH holatida bitta 8.3 kWh sig‘imli batareya bloki atigi 4.73 kWh foydali energiya bera oladi. Mazkur ko‘rsatkich 60 kW yoki 90 kW quvvatli tezkor quvvatlash stansiyalari uchun nisbatan kichik bufer sig‘imi hisoblanadi. Aksincha, 26.6 kWh sig‘imli batareya bloki 75% SOH holatida 15.16kWh foydali energiya ta’minlay oladi. Shu sababli yuqori sig‘imli batareya bloklari tezkor quvvatlash infratuzilmasida foydalanish uchun samaraliroq va amaliy jihatdan maqbul variant sifatida baholanadi [2, 3, 6].

Turli batareya sinflarini xolisona va texnik jihatdan asosli ravishda solishtirish maqsadida taxminan 160 kWh nominal sig‘imli bufer tizimlari ko‘rib chiqildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, asosiy farq umumiy energiya hajmida emas, balki zarur batareya to‘plamlari soni hamda tizim murakkabligida namoyon bo‘ladi. Ikkilamchi batareya tizimlarida bloklar sonining ortishi monitoring, xavfsizlik, diagnostika va balanslash jarayonlarini murakkablashtiradi [8, 12, 13]. Shu bois kamroq modul talab qiladigan yuqori sig‘imli batareya bloklari tizimning texnik ishonchliligi va ekspluatatsion samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi (3-jadval).

3-jadval
Taxminan 160 kWh nominal bufer tizimi uchun zarur pack soni[3]

| Batareya sinfi | Blok soni | Nominal umumiy sig‘im | 75% SOH da foydali energiya |
|---|---|---|---|
| 8.3 kWh | 19 ta | 157.7 kWh | 89.9 kWh |
| 18.3 kWh | 9 ta | 164.7 kWh | 93.9 kWh |
| 26.6 kWh | 6 ta | 159.6 kWh | 91.0 kWh |

Jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, umumiy nominal sig‘im deyarli bir xil bo‘lgan holatlarda foydali energiya hajmi ham o‘zaro yaqin qiymatlarni tashkil etadi. Demak, asosiy farq energiya miqdorida emas, balki tizimning texnik murakkabligi va ekspluatatsion xususiyatlarida namoyon bo‘ladi.

19 ta 8.3 kWh sig‘imli batareya blokidan tashkil topgan tizimdan foydalanish bir qator texnik murakkabliklarni yuzaga keltiradi. Jumladan, tizimda 19 ta alohida BMS monitoring kanali talab qilinadi, yuqori kuchlanishli ulanishlar

2 Muallif tomonidan yaratilgan.
3 Muallif tomonidan yaratilgan.

soni ortadi, elektr ulagichlari va saqlagichlar miqdori koʻpayadi hamda kabel infratuzilmasi murakkablashadi. Bundan tashqari, batareya bloklari orasidagi SOH farqlarini boshqarish va texnik xizmat koʻrsatish jarayonlari ham ancha qiyinlashadi.

Aksincha, 6 ta 26.6 kWh sigʻimli batareya bloki kamroq komponentlar yordamida deyarli bir xil foydali energiya hajmini taʼminlay oladi. Shu sababli 26.6 kWh sigʻimli bloklar tizimning ishonchliligi, servis qulayligi hamda iqtisodiy samaradorligi nuqtayi nazaridan ustun variant sifatida baholanadi.

Oʻzbekiston sharoitida ikkilamchi foydalaniladigan BYD batareyalari asosida quriladigan bufer tizim toʻgʻridan-toʻgʻri parallel ulanish tamoyiliga emas, balki modulli "DC-coupled" arxitekturaga asoslanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Tavsiya etilayotgan arxitektura elektr tarmogʻining AC kirish qismi, AC/DC toʻgʻrilagich, umumiy DC bus, har bir batareya bloki uchun alohida BMS, har bir blok uchun bidirectional DC/DC converter, 60 kW yoki 90 kW DC quvvatlash qurilmasi, markaziy Energy Management System (EMS), izolyatsiya monitoringi, termik boshqaruv tizimi hamda yongʻin xavfsizligi va favqulodda oʻchirish tizimlaridan iborat boʻlishi lozim.

Mazkur arxitektura eski batareyalar bilan ishlashda ayniqsa muhim ahamiyatga ega, chunki ikkilamchi foydalanishdagi batareya bloklari bir xil texnik holatda boʻlmaydi. Ularning SOH darajasi, ichki qarshiligi, oʻz-oʻzidan zaryadsizlanish xususiyati hamda termik xatti-harakati oʻzaro farq qilishi mumkin. Har bir batareya blokini alohida DC/DC konverter orqali boshqarish esa zaif batareya blokining nominal koʻrsatkichlarini cheklash (battery pack derating) yoki uni tizimdan xavfsiz tarzda ajratib qoʻyish imkonini beradi [12, 13].

Tadqiqot natijalariga koʻra, eng maqbul pilot konfiguratsiya 6 ta 26.6 kWh sigʻimli BYD PHEV ikkilamchi batareya blokidan tashkil topgan tizim hisoblanadi. Ushbu konfiguratsiyaning umumiy nominal sigʻimi 159.6 kWhni tashkil etadi hamda 75% SOH holatida taxminan 91 kWh foydali energiya bera oladi. Tizim dastlab 60 kW DC tezkor quvvatlash stansiyasi bilan ishlashga moʻljallangan boʻlib, 30-40 kW mavjud tarmoq quvvatidan foydalanadi. Shu bilan birga, keyingi bosqichlarda tizimni 90 kW quvvatli tezkor quvvatlash stansiyasiga kengaytirish imkoniyati ham mavjud (4-jadval).

4-jadval
6 × 26.6 kWh bufer tizimi uchun ishlash davomiyligi[4]

| Holat | Tarmoq quvvati | Zaryadlash quvvati | Bufer qoplaydigan quvvat farqi | 75-% SOH holatida ishlash davomiyligi |
|---|---|---|---|---|
| A | 30 kW | 60 kW | 30 kW | 3.03 soat |
| B | 40 kW | 60 kW | 20 kW | 4.55 soat |
| C | 30 kW | 90 kW | 60 kW | 1.52 soat |
| D | 40 kW | 90 kW | 50 kW | 1.82 soat |

Mazkur natijalar shuni koʻrsatadiki, 6 ta 26.6 kWh sigʻimli batareya blokidan tashkil topgan tizim 60 kW quvvatli tezkor zaryadlash stansiyasi uchun juda maqbul hisoblanadi. Agar elektr tarmogʻi ulanish quvvati 30-kWni tashkil etsa, 60 kW quvvatli zaryadlash stansiyasi ishlayotgan vaqtda bufer tizimi faqat 30 kW quvvat farqini qoplaydi. 75% SOH holatida bunday rejimda tizim taxminan 3 soat davomida barqaror ishlashi mumkin.

90 kW quvvatli charger rejimida esa bufer tizimiga tushadigan yuklama sezilarli darajada ortadi. Shunga qaramasdan, 30 kW tarmoq ulanishi mavjud boʻlgan holatda ham tizim taxminan 1.5 soat davomida 90 kW charging rejimini qoʻllab-quvvatlay oladi. Mazkur koʻrsatkich qisqa muddatli yuqori quvvatli quvvatlash sessiyalarini amalga oshirish uchun yetarli darajada samarali hisoblanadi.

Ikkilamchi batareya-bufer tizimlarining asosiy iqtisodiy afzalligi elektr energiyasini arzon vaqt oraligʻida xarid qilib, qimmat vaqtda sotish bilan bogʻliq emas. Oʻzbekiston sharoitida asosiy iqtisodiy samaradorlik elektr tarmogʻini modernizatsiya qilish xarajatlarini kamaytirish yoki ularni maʼlum muddatga kechiktirish orqali yuzaga keladi. Elektr energiyasi tariflari hamda yuridik shaxslar uchun belgilangan elektr narxlariga oid normativ maʼlumotlar mamlakatdagi zaryadlash stansiyalari infratuzilmasining iqtisodiy samaradorligini baholashda muhim omillardan biri hisoblanadi [15].

Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda "battery-buffered fast charging" tizimlari, ayniqsa elektr tarmogʻi quvvati cheklangan hududlarda, transformator va kabel infratuzilmasini kuchaytirishga samarali muqobil yechim sifatida baholangan [6, 7, 11]. Funke va hammualliflari statsionar batareyalar qoʻllanilgan zaryadlash stansiyalarining iqtisodiy samaradorligi joylashuv, zaryadlash talabi hamda elektr tarmogʻiga ulanish xarajatlariga kuchli bogʻliqligini koʻrsatgan [9]. Xu va hammualliflari esa eskirgan lithium-ion batareyalarni tezkor quvvatlash stansiyalarida qoʻllash iqtisodiy jihatdan istiqbolli yoʻnalish ekanligini taʼkidlagan [10].

Shu sababli Oʻzbekiston sharoitida ikkilamchi batareya-bufer tizimlari universitet kampuslari, taksi yoki xizmat avtomobillari depolari, logistika va servis parklar, yoʻl boʻyidagi restoran va dam olish maskanlari, mehmonxonalar,

4 Muallif tomonidan yaratilgan.

savdo markazlari hamda elektr tarmog‘i quvvati cheklangan hududlardagi zaryadlash punktlari uchun ayniqsa maqbul hisoblanadi. Birinchi ilmiy-amaliy pilot loyiha uchun universitet yoki avtopark hududi eng mos variant sifatida qaraladi. Chunki bunday obyektlarda quvvatlash rejimini nazorat qilish nisbatan oson bo‘lib, batareya monitoringi samaraliroq tashkil etiladi hamda xavfsizlik choralari qat’iyroq yuritilishi mumkin [6, 8].

Ikkilamchi foydalanishdagi batareyalarni qo‘llashda xavfsizlik masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Avtomobilda ishlatilgan batareyaning oldingi ekspluatatsiya tarixi to‘liq ma’lum bo‘lmasligi mumkinligi sababli har bir batareya bloki qayta foydalanishdan oldin majburiy diagnostikadan o‘tkazilishi lozim. Minimal diagnostika jarayoni real sig‘im testini amalga oshirish, SOH darajasini aniqlash, ichki qarshilikni o‘lchash, izolyatsiya qarshiligini tekshirish, yacheykalar kuchlanishini tenglashtirish (balanslash) holatini baholash, harorat sensorlari faoliyatini nazorat qilish, zaryad va razryad jarayonlaridagi termik xatti-harakatni kuzatish hamda BMS bilan aloqa imkoniyatlarini tekshirish kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi [12, 13].

LFP batareyalar boshqa ayrim litiy-ion kimyoviy tarkiblarga nisbatan xavfsizroq hisoblangan bo‘lsa-da, ikkilamchi foydalanish tizimlarida xavfsizlik talablarini kamaytirish mumkin emas [5, 14]. Statsionar energiya saqlash tizimlari uchun NFPA 855, UL 1973, UL 9540 va UL 9540A kabi xalqaro xavfsizlik standartlari qo‘llaniladi [17, 18]. Shu bois O‘zbekiston sharoitida ham pilot tizimlarni loyihalashda mazkur xalqaro standartlarga yaqin yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bundan tashqari, batareyalarning keyingi utilizatsiyasi va qayta ishlanishi ekologik qonunchilik bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining chiqindilar to‘g‘risidagi normativ-huquqiy hujjatlari second-life batareyalarni hisobga olish, saqlash hamda yakuniy utilizatsiya qilish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi [16]. Shu sababli ikkilamchi foydalaniladigan har bir batareya bloki uchun uning kelib chiqish tarixi, diagnostika natijalari va keyingi qayta ishlash yo‘nalishlari to‘liq hujjatlashtirilishi lozim.

Shu bilan birga, statsionar energiya saqlash tizimlarida bir qator xavfsizlik elementlarining mavjud bo‘lishi zarur hisoblanadi. Jumladan, har bir blok uchun alohida elektr saqlagichi, yuqori kuchlanishli elektr ulagichlari, emergency stop tizimi, izolyatsiyani nazorat qilish qurilmasi, harorat monitoringi, tutun yoki gaz detektorlari, yong‘in xavfsizligi vositalari, metall himoya shkafi yoki konteyner, ventilyatsiya yoki aktiv sovitish tizimi hamda blokni avtomatik uzish algoritmlari tizim tarkibida bo‘lishi talab etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ikkilamchi batareya-bufer tizimlarini loyihalashda faqat nominal sig‘im ko‘rsatkichiga tayanish yetarli emas. Batareya bloklari soni, BMS tizimining murakkabligi, bloklar orasidagi texnik tafovutlar, issiqlik boshqaruvi, texnik xizmat ko‘rsatish qulayligi hamda xavfsizlik tizimlari ham muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi [8, 12, 13].

8.3 kWh sig‘imli batareya bloklari O‘zbekiston sharoitida keng tarqalishi mumkin bo‘lsa-da, ular tezkor quvvatlash infratuzilmasi uchun asosiy modul sifatida yetarli darajada samarali emas. Chunki katta bufer sig‘imini shakllantirish uchun juda ko‘p batareya to‘plamlari talab qilinadi. Shu bois bunday tizimlar laboratoriya qurilmalari, kichik UPS tizimlari, quyosh energiyasi buferlari yoki kichik quvvatli tajriba stendlari uchun ko‘proq mos keladi.

18.3 kWh sig‘imli batareya bloklari amaliy jihatdan ancha maqbul variant hisoblanadi. Ular 30-60 kW oralig‘idagi quvvatlash obyektlarida samarali qo‘llanilishi mumkin [2, 3]. Biroq 60-90 kW quvvatli tezkor charging tizimlari uchun 26.6 kWh sig‘imli batareya bloklari yanada samaraliroq yechim hisoblanadi.

26.6 kWh sig‘imli batareya bloklari eng kam to‘plam soni bilan yetarli umumiy energiya sig‘imini hosil qiladi. Masalan, taxminan 160 kWh nominal bufer tizimini shakllantirish uchun 19 ta 8.3 kWh yoki 9 ta 18.3 kWh batareya bloki talab qilinsa, 26.6 kWh sig‘imli bloklardan atigi 6 tasi yetarli bo‘ladi. Bu esa tizimning umumiy ishonchliligini oshirish, texnik arxitekturasini soddalashtirish hamda ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston sharoitida mazkur texnologiya eskirgan PHEV batareyalaridan utilizatsiya jarayonigacha qo‘shimcha ravishda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bu yondashuv ekologik va iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega, chunki batareyalar to‘liq chiqindi sifatida emas, balki energiya infratuzilmasining foydali elementi sifatida qayta qo‘llaniladi.

Tadqiqot asosida 6 ta 26.6 kWh sig‘imli BYD PHEV ikkilamchi batareya blokidan tashkil topgan, taxminan 160 kWh nominal bufer sig‘imiga ega bo‘lgan pilot loyiha tavsiya etiladi. Mazkur tizim 60 kW DC tezkor zaryadlash stansiyasi, 30-40 kW elektr tarmog‘i ulanishi, pack-level BMS, bidirectional DC/DC converter hamda EMS asosidagi boshqaruv tizimi bilan jihozlanishi lozim. Tizim uchun SOC ish diapazoni taxminan 25-85% etib belgilanadi, favqulodda minimal SOC esa 20% darajasida qabul qilinadi. Pilot loyiha universitet kampusi yoki avtopark hududida sinovdan o‘tkazilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur konfiguratsiya elektr tarmog‘i quvvati cheklangan obyektlarda tezkor quvvatlash xizmatini tashkil etish uchun mos bo‘lib, NREL tomonidan tavsiya etilgan “battery-buffered fast charging” konsepsiyalariga yaqin hisoblanadi [6, 7].

Pilot tizim muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazilgandan so‘ng zaryadlash stansiyasi quvvatini 90 kW gacha oshirish, real foydalanish ma’lumotlarini yig‘ish, SOH monitoringini davom ettirish hamda batareya degradatsiyasi modelini aniqlash tavsiya etiladi. Batareya degradatsiyasini tahlil qilishda harorat, DoD, C-rate va cycling rejimi asosiy parametrlar sifatida saqlanib qoladi [13, 14].

Keyingi bosqichda tizim elektr tarmog‘i quvvati cheklangan yo‘l bo‘yidagi restoranlar, mehmonxonalar yoki servis obyektlarida amaliy sinovdan o‘tkazilishi mumkin. Ushbu bosqichda texnik monitoring bilan bir qatorda iqtisodiy tahlil, charging demand, operational cost hamda grid upgrade xarajatlarini o‘zaro solishtirish muhim ahamiyat kasb etadi [9-11].

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada O‘zbekistonda tezkor quvvatlash infratuzilmasi uchun BYD PHEV avtomobillaridan olinadigan 8.3 kWh, 18.3 kWh va 26.6 kWh sig‘imli ikkilamchi batareya bloklaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Amalga oshirilgan hisob-kitoblar barcha batareya bloklari asosida nazariy jihatdan bufer tizim yaratish mumkinligini ko‘rsatdi. Biroq amaliy, texnik va iqtisodiy jihatdan eng maqbul variant sifatida 26.6 kWh sig‘imli batareya bloki baholandi.

Tadqiqotning asosiy ilmiy-amaliy xulosalari quyidagilardan iborat. Birinchidan, ikkilamchi foydalanishdagi BYD PHEV batareyalari O‘zbekiston sharoitida tezkor quvvatlash infratuzilmasini qo‘llab-quvvatlash uchun istiqbolli va dolzarb resurs hisoblanadi. Ikkinchidan, 8.3 kWh sig‘imli batareya bloklari kichik energiya sig‘imiga ega bo‘lgani sababli 60-90 kW quvvatli charging tizimlari uchun asosiy modul sifatida tavsiya etilmaydi. Uchinchidan, 18.3 kWh sig‘imli batareya bloklari o‘rta quvvatli tizimlar uchun maqbul variant bo‘lishi mumkin, biroq ular 26.6 kWh sig‘imli bloklarga nisbatan ko‘proq ulanish va boshqaruv murakkabligini talab qiladi.

Shuningdek, 26.6 kWh sig‘imli batareya bloklari bir xil umumiy bufer sig‘imini hosil qilish uchun eng kam batareya to‘plamini talab qilishi sababli texnik, iqtisodiy va xavfsizlik nuqtayi nazaridan eng samarali variant sifatida baholandi. Tavsiya etilayotgan dastlabki pilot loyiha 6 ta 26.6 kWh sig‘imli batareya blokidan tashkil topgan tizim, 60 kW DC tezkor zaryadlash stansiyasi hamda 30-40 kW elektr tarmog‘i ulanishiga asoslanishi lozim.

Umuman olganda, O‘zbekistonda BYD PHEV avtomobillarining soni ortib borishi yaqin yillarda ikkilamchi batareyalar bozorining shakllanishiga xizmat qiladi. Mazkur batareyalarni nazorat qilinadigan, xavfsiz va modulli energiya saqlash tizimlarida qo‘llash elektromobil infratuzilmasini rivojlantirish, elektr tarmog‘iga tushadigan yuklamani kamaytirish hamda batareyalar utilizatsiyasini kechiktirish orqali muhim ekologik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. National Statistics Committee of Uzbekistan. How Many Electric Vehicles Are Registered in Uzbekistan? - 2025.
2. BYD. SEAL U DM-i Specification Sheet. BYD Official Technical Documentation. - 2024.
3. BYD. BYD SONG PLUS DM-i Specifications and Configurations. BYD Official Product Flyer. - 2024.
4. BYD. Qin Plus DM-i Owner’s Manual. BYD Official Owner Manual.
5. BYD. BYD Blade Battery Technology. BYD Official Technology Page.
6. National Renewable Energy Laboratory. Battery Energy Storage for Electric Vehicle Charging Stations. NREL. - 2024.
7. National Renewable Energy Laboratory. Grid-Constrained Electric Vehicle Fast Charging Sites: Battery-Buffered Options. NREL. - 2024.
8. Smith, K. et al. Battery Second Use Analysis and Demonstration. NREL Technical Report. - 2018.
9. Funke, S. et al. Fast Charging Stations with Stationary Batteries: A Techno-Economic Comparison of Fast Charging Along Highways and in Cities. - 2020.
10. Xu, L. et al. Can Retired Lithium-Ion Batteries Be a Game Changer in Fast Charging Stations? - 2023.
11. Boudellal, A., Ziras, C., Larsen, E. M., & Marinelli, M. Techno-Economic Comparison of Grid Reinforcement and Battery-Buffered Electric Vehicle Fast Charging Stations. Sustainable Energy, Grids and Networks. - 2025.
12. Haram, M. H. S. M. et al. Feasibility of Utilising Second-Life EV Batteries: Applications, Lifespan, Economics, Environmental Impact, Assessment, and Challenges. - 2021.
13. Montes Torre, T. et al. Procedure for Assessing the Suitability of Battery Second-Life Applications After EV First Life. Batteries. - 2022.
14. Omar, N. et al. Lithium Iron Phosphate-Based Battery: Assessment of the Aging Parameters and Development of Cycle-Life Model. Applied Energy. - 2014.
15. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13-aprel 2019-yildagi “Elektr energetika tarmog‘ida tarif siyosatini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 310-son Qarori. https://lex.uz/docs/-4289870?ONDATE2=01.04.2025&action=compare.
16. O‘zbekiston Respublikasining 5-aprel 2002-yildagi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi 362-II-son Qonun va Tegishli Ekologik Me’yoriy Hujjatlar. https://lex.uz/docs/-42423.
17. NFPA 855. Standard for the Installation of Stationary Energy Storage Systems.
18. UL 1973, UL 9540 va UL 9540A. Standards for Stationary Battery and Energy Storage System Safety.

muhandislik
& iqtisodiyot

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. May. № 5**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali 26.06.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**